

TERMIZ SHAHRIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SONI YANA BITTAGA KO'PAYDI



TERMIZ SHAHRIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SONI YANA BITTAGA KO'PAYDI

Hozirgi kunda shahrimizda 32 ta davlat, 19 ta davlat-xususiy sherikchilik asosidagi, 4 ta nodavlat va 74 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud.

Bugun, 14-yanvar kuni bolajonlar uchun "Kattabog'" mahallasida "Parvozga shay bolalar" nomli nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Mazkur bog'cha 150 o'rinli bo'lib, zamonaviy barcha qulayliklarga ega.

"Parvozga shay bolalar" nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 21 nafar fuqaro ish o'rniga ega bo'ldi.

Ochilish marosimida viloyat hokimi o'rinbosari Ilxom Saparov, Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiyev, jamoatchilik vakillari va maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari ishtirok etishdi.

Mazkur bog'cha nuroniy Shokirxoji bobo hamda bolajonlarning samimiy va beg'ubor d'olari bilan o'z faoliyatini boshladi.




Image not found or type unknown

